

“RO‘YO YOXUD G‘ULISTONGA SAFAR” ROMANIDA ONG OQIMI POETIKASI**Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi****JDPU doktoranti**<https://doi.org/10.5281/zenodo.16612722>

Adabiyot inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib beruvchi kuchli badiiy vositadir. Ayniqsa, ong oqimi uslubida yozilgan asarlar orqali inson ichki kechinmalari, tafakkuridagi ziddiyatlar, ongi va xotiralari tasviriy qatlamga ko‘chiriladi. Ahmad A‘zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” romanida aynan shunday psixologik murakkabliklar, tush va haqiqat oralig‘idagi noaniqliklar, ijtimoiy va siyosiy tanqidiy qatlamlar bir butun ong oqimi tarzida ifodalanadi. Asar bosh qahramonining ongida ro‘yo beradigan ikki qismli ziddiyatlar, ichki monologlar orqali inson o‘zligini izlaydi, mavjud tartibotga shubha bilan qaraydi, voqelikni o‘z ruhiy tajribasi orqali idrok etadi. Zanjir timsoli, ajina obrazi, qo‘rquvning psixologik tahlili, assotsiativ tafakkur jarayonlari asarda inson va jamiyat munosabatining falsafiy, ramziy va tanqidiy talqiniga zamin yaratadi. Ushbu tahlil mazkur roman misolida ong oqimi uslubining imkoniyatlarini, uning vositasida ochilgan ijtimoiy, ruhiy va ramziy qatlamlarni yoritishni maqsad qiladi.

Bosh qahramon g‘uliyalar dahosining rasmi bilan xayolan muloqot qiladi, o‘z ongida ikki qismga bo‘linib, o‘zining ichki ovozi bilan bahslashadi. Bu ichki monolog orqali insonning o‘ziga, dunyoga va mavjud tartibotga bo‘lgan shubhalari va ichki kechinmalari ochib beriladi: bir tomoni o‘zi, bir tomoni g‘uliy daho. Bu ichki ziddiyatni, inson tafakkurining o‘z-o‘zi bilan kurashishini ifodalaydi. O‘ziga ochiq savollar beradi, javob izlaydi, lekin aniq javob topa olmaydi. “Kunduzlari yorug‘da, kechalari elektr chirog‘ida ko‘zim bilan teshib yuborgudek qadaldim...”¹ Qahramonning ko‘zlari orqali chuqur tahlil qilishga, haqiqatni topishga bo‘lgan intilishi aks ettiriladi. Tasvir kuchayib boradi, vaqt o‘tishi bilan qahramon g‘uliy dahosi nazarida tobora o‘z oqizligini his qila boshlaydi.

Romanning “Tabiat baribir yurakka yaqin” bobida G‘ulistondagi voqealar to‘lqinida bevosita Paxmoq ahmoq tilga olinadi. Qahramon ko‘ngli qo‘rquv hissini tuymay qo‘ygani aks ettiriladi. Qahramon qo‘rquvni mantiqan tahlil etadi, uni o‘z tajribasi asosida tushuntirishga harakat qiladi. Avvaliga u qo‘rqish tabiiy ekanini anglaydi, lekin vaqt o‘tishi bilan qo‘rquvning o‘ziga xos evolyutsiyasi borligini tushunadi. Inson nimadandir haddan tashqari qo‘rqsa, oxir-oqibat qo‘rqmay qo‘ya boshlaydi, chunki qo‘rquvning chegarasi yo‘qolgandek bo‘ladi. Bu joyda inson ruhiyatidagi ziddiyatlar aks ettirilgan. Qo‘rquv ongni hushyor saqlaydi, u yo‘q bo‘lganda esa odam o‘zini yo‘qotib qo‘yishi ehtimoli bor. Chunki qo‘rquv insonning bu dunyoda yashab qolishi uchun muhim bo‘lgan tuyg‘udir.

Qahramon g‘uliyalarning zanjirga bo‘lgan e‘tiqodini, ularning ushbu hayotda qanday yashashlarini kuzatib o‘rganadi. Fikrlar ochiq-oydin davom etib, qahramonning analiz qilish jarayoni namoyon bo‘ladi. U nafaqat oddiy kuzatuvchi, balki ilmiy-tahliliy yondashuv bilan masalaga qaraydi. Qahramon g‘uliyalarning so‘zlari, lab harakatlari, yurak urishlari, jumlar orasidagi to‘xtamlarini o‘rganadi. Bu detallar uning chuqur tafakkurini ko‘rsatadi – u o‘zining real hayotdagi tajribasi (TVda ishlaganligi) bilan g‘uliyalar jamiyatidagi o‘ziga xoslikni qiyoslashga harakat qiladi. Zanjir ularning hayotining asosiy markazi – ular unga chin dildan ishonishadi, hech qanday soxtalik yo‘q. Bu yerda o‘z fikridan voz kechgan, faqat yuqori

¹ A‘zam A. Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 156.

amaldorlar yoki jamiyat talab qilgan narsalarni gapiradigan insonlar g'uliylarga qiyoslanadi, jamiyatdagi illatlar tanqid qilinadi.

Asarda bosh qahramonning ruhiy kechinmalari, xotiralari, voqealarga bo'lgan munosabati asta-sekin murakkablashadi. Dastlabki manzaralar an'anaviy tasvirlardan boshlanadi: oddiy kundalik voqealar, oilaviy suhbatlar, qishloq manzaralari. Ammo tasvir davomida ong oqimi kuchayadi, bu esa rivoyaviy aniqlikni pasaytiradi va o'quvchini xayoliy, tushga o'xshash dunyoga olib kiradi. Shu bilan birga, mantiqiy bog'liqlik yo'qolmagani sababli realizm butunlay yo'qolmaydi – bu ong oqimi uslubining asosiy xususiyatidir. Voqealarning ba'zilar siyosiy, ba'zilar ijtimoiy-maishiy mavzularni aks ettiradi. Roviylar tarjimai holini bir-bir ko'zdan kechirar ekan, na'mataklarning juda kamayib ketganligiga e'tiborini qaratadi. Yoshligida "ajinapita" (ajinabuta) sifatida el orasida mashhur bo'lgan ushbu daraxt jin va ajinalarning makoni sifatida tasvirlanadi. Bosh qahramon fikrlarini berishda vaziyatga subyektiv yondashmay, turli rakurslarni kitobxonga ko'rsatib, fikrlashga va xulosa chiqarishga undaydi. Ajinalar bo'yicha fikrga obyektiv munosabatda bo'lgan qahramon yoshligidagi paxta terimi siyosatini eslarkan, davlat paxtasini ajina qo'riqlashi haqidagi xalq og'zidagi mish-mishlarni yodga oladi. Davlat va ajina o'zaro solishtiriladi va davlat siyosati hajv ostiga olinadi, garchi tonnalab paxta ishlab chiqarilsa-da, paxtaning do'konlarda, odamlar xonadonida o'ta taqchilligi ko'rsatib beriladi. Ajina doirasida onasining molxonada akasi ko'rinishidagi ajinaga duch kelgani tahlil qilinadi. Roviylar ba'zan onasining ongini, ba'zan xayolotni ajinaga sabab qilib ko'rsatsa ham, ong hayotida guvohi bo'lgan Orziqul voqeasini misol sifatida keltiradi. Yosh Orziqulning onasi ona bola oq eshakni ko'rganda qo'rqqan bo'lib, ruhiyatida o'g'liga hech nima qilmasinda degan shubha oralaydi. Natijada Orziqulning og'zi qiyshayib, bormagan tabiblari, ko'rsatmagan shifokorlari qolmaydi, foyda bermaydi. Orziqul va onasi ko'ziga gallyutinatsiya ko'ringan bo'lishi mumkin deya bir tarafdin tahlil qilinsa ham, tafakkur bunga qarama-qarshi insonlar bilan bog'liq bo'lmagan, hayvonlar ham his qilib sezgan g'ayrioddiy voqea bayon qilinadi. Qambar ota qabristonidan Ko'pkaridan o'tayotganda otlarning seskanib bir qadam ham yurolmaganlik holatini roviy mahorat bilan oldingi voqealarga assotsiya qiladi. Har bir vaziyat batafsil, mayda detallarigacha tasvirlanadi. Bu – ongning tabiiy, betartib harakati, har bir assotsiatsiya boshqa xotirani chaqiradi, u orqali muallif ma'no qatlamlarini ochadi. O'z akasining boshiga tushgan ko'rgiliklar uni ko'proq mushohada qilib, o'ylashga undaydi. Spirtli ichimlik oqibatida hayoti barbod bo'layotgan aka qiyofasida jamiyatdagi ko'pchilik shu toifadagi insonlarning umumlashma tipi mavjud. Shunday ichkilikka ruju qo'ygan shaxslarni ajinaga ro'baro' qilib, butunlay ushbu odatdan voz kechishga majburlay oladigan qahramonning otasi irratsional holatni ifodalaydi.

Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" romanida ong oqimi uslubining qo'llanishi orqali inson tafakkurining ichki ziddiyatlari, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy voqelikka nisbatan tanqidiy munosabati o'ziga xos badiiy shaklda ifodalangan. Bosh qahramonning g'uliy daho bilan xayoliy muloqoti, ichki monologlar, qo'rquvning psixologik tahlili, ajina obrazi va zanjir timsoli orqali asarda inson va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar chuqur ochib beriladi. G'uliylar dunyosi, o'zini yo'qotgan insonlarning metaforik ifodasi sifatida, mavjud ijtimoiy tuzumning bo'ysundirish mexanizmlarini tanqid ostiga oladi. Shu bilan birga, tush va haqiqat, xotira va gallyutsinatsiya, realizm va irrealizm chegarasining xiralashuvi roman poetikasida zamonaviy badiiy ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Asardagi har bir assotsiatsiya, har bir detaldagi tafakkur tarmog'i muallifning murakkab ruhiy olamga chuqur kirib borishini, uni badiiy tafakkur darajasida ifoda etishga intilishini ko'rsatadi. Demak, "Ro'yo

yoxud G‘ulistonga safar” romani nafaqat shaxsiy kechinmalarning badiiy tasviri, balki umumiy jamiyat muammolarining psixologik va ramziy talqini sifatida e’tiborga loyiq badiiy asardir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A‘zam A. Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – 307 b.
2. Жўраев Т. Онг оқими модерн. – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2009. – 203 б.
3. Истамова Ш. Бадий асарда тушнинг поэтик-композицион вазифалари. филол. фан. фалсафа докт. дис. –Т., 2017. – 142 б.
4. Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик (М.М.Дуст, Г.Хотамов, О.Отахон асарлари асосида). филология фан. номзоди. дисс.– Тошкент. 1994. – 162 б.
5. Muqimova D. Adabiyotda ong oqimi yo‘nalishining vujudga kelishi va rivojlanishi haqida. <https://inlibrary.uz>

INNOVATIVE
ACADEMY